

## O`QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISH ISHLARI: MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI.

**R.Tangirqulova, Nasiba Xo'janova**  
*PTMA tizimidagi Surxondaryo viloyati*  
*Qumqo`rg`on tuman ixtisoslashtirilgan maktab psixologi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o`quvchilarni kasbga yo`naltirishda birinchi ularning qiziqishlari muhim ekanligi psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Qolaversa kasb psixodiagnostikaning maqsadi tushuntirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qiziqish, kasb, oila, tadqiqot, shaxs, pedagog, tahlil, tarbiya, muammo, faoliyat.*

O`quvchilarni kelajak hayot rejalarini va kelajakda egallamoqchi bo`lgan kasblari bilan tanishtirishdan avval ulardagi mayjud maylga, qiziqishga, nafosat va nafis tuyg`ularga, irodaviy sifatlarga, ideal maqsadlarga intilishga alohida e`tibor berish zarur. O`quvchilarni ruhiyati va ma`naviyatiga to`g`ri yo`l topish orqali uning fe`l-atvoriga o`rnashib olgan xislathlarida ayrim o`zgarishlar vujudga keltirish imkoniyati tug`iladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarning bo`sh vaqtidushmanning ish vaqt” degan hikmatli iborasini juda ko`p ishlatadi. Bundan ma`no shuki, yoshlarni o`zlarining qiziqtirgan kasbiga to`g`ri yo`naltirish ularning kelajagini porloq qiladi. Ota-onas, yaqin qarindoshlarining mas`ulligini oshiradi. Bugungi kun pedagogiga qo`yiladigan talab shuki, “Yomon o`quvchi bo`lmaydi, ularning qiziqtira olmagan yomon o`qituvchi bo`ladi”. Yurtboshimizning ushbu so`zlar pedagogdan juda katta mahorat, bilim va qobiliyat talab qiladi. Har bir o`quvchini xarakter xususiyatidan, qiziqishidan, imkoniyatidan, bilimidan kelib chiqib, uni kasbga to`g`ri yo`naltirsa, u albatta jamiyatda o`z o`rnini topadi.

Kasbiy qiziqishlarni o`rganish psixologiyada juda ko`p ilmiy tadqiqotlar mavzusi sifatida o`rganilgan va amaliy tahlil qilingan. Ma`lumki, shaxsning barcha qobiliyatları uning qiziqishlarining qay darajada shakllanganiga bog`liq holda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan o`quvchilar kasbiy qiziqishlari ularning ehtiyojlari, kelib chiqishi, kasblar haqida qanchalik ma`lumotlarga egaligi, kelajak orzulari bilan bog`liq bo`ladi.

Shaxsning kasbiy bilimlarini aniqlash muammosi XIX asrning oxiri- XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshladi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o`rganiladi. Ular kasbiy bilim va ko`nikmalarini o`rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar.

Ta`lim-tarbiya bilan kelajak haqidagi kasbiy qarorini shakllantirishni bir-biriga qanday moslab olish kerak? Kasbni har kim qiziqishi, layoqati va qobiliyati asosida o`zi uchun o`zi tanlaydi. To`g`ri yaqin kishilarning maslahatiga qulog solish, ularning bahosini hisobga olish, takliflar, ogohlantirishlarni nazardan qochirmslik muktab amaliyotchi psixologi tavsiyalariga amal qilishi kerak, ammo yigit va qizlarning o`zlarini, faqat o`zlarigina bir qarorga kelishlari maqsadga muvofiq.

O`quvchilarning kasb faoliyati har xil turlarga bo`lgan qiziqish va maylini rivojlanishiga yo`naltirishning muhim tarkibiy qismidir. Kasbga bo`lgan bunday mayl va ishtiyoq

kasbga bo`lgan qiziqishni shakllantiradi va tarbiyalash, ushbu kasbga hurmat bilan qarash, mehnatga muhabbatni , ishga psixologik shaylikni tarbiyalash singari elementlardan tashkil topadi.Bir qancha maktablarning tajribasi shuni ko`rsatadiki, o`quvchilarda kasbiy faoliyatning har xil turlariga bo`lgan qiziqish va ishtiyoqni rivojlantrishga o`quvchilarini bir maqsadni ko`zlab mehnat ta`limini berish va ularni ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish ta`sir o`tkazmoqda. Ko`p kasblar bilan nazariy tanishib qolmay , balki bir muncha ommaviy kasblarni bilish , ishlab chiqarish jamoalariga qo`shilish uchun zarur bilim va ko`nikmalarni egallash o`quvchilariga kasb tanlashiga imkon beradi. Maktab o`quvchilariga mehnat ta`limini berish va tarbiyalashning sobitqadamliligi har bir iqtisodiy rayonning va mamlakatning ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish tendentsiyalariga muvofiq ularning kasbiy ideallarini shakllanishini ta`minlaydi.Faoliyatning samarali bo`lishi uchun o`quvchilar bilan ishlashga e`tibor berish, har bir kishining shaxsiy xislatlari va imkoniyatlariga mos bo`lgan mashg`ulotni topish mumkin.

Kasb psixodiagnostikasining maqsadi - kasbga yo`naltirish maqsadida maktab o`quvchisining shaxsini o`rganishdir, kasb diagnostikasi jarayonida shaxsnинг xususiyatlari, qimmatli mo`ljallar, qiziqishlar, talab ehtiyojlari, kasbiy niyatları, temperamenti, sog`ligi o`rganiladi. Kasb haqida maslahat berish shaxsiy psixologik xususiyatlar , kasbning o`ziga xos xususiyatlariga mos bo`lishini aniqlashni maqsad qiladi.Maslahat berishning quyidagi turlari bor. Ma`lumot tarzidagi maslahat chog`ida o`quvchilar ishga joylashish yo`llarini , ishga va o`qishga nisbatan qo`yiladigan talabalarni, kasblarni o`zlashtirish imkoniyatlarini, tayyorgarlik muddatlarini, mehnatga haq to`lahs sistemasini , kasbiy o`sish istiqbollarini bilib oladilar.

Diagnostik maslahatlar - shaxsni qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlarini o`rganishga qaratilgan bo`lib, bunda shaxsni ana shu xususiyatlarini tanlaydigan kasbiga yoki unga yaqin hunarga mosligi ko`zda tutildi. Shakllantiruvchi maslahatharda maktab o`quvchisining kasb tanlashga rahbarlik qilishni , tuzatishni ko`zda tutilgan bo`lib, bunday maslahatlar uzoq muddatga mo`ljallangan bo`ladi.

Tibbiy maslahatlar - o`quvchining sog`ligini , uning tanlaydigan kasbiga nisbatan psixologik xususiyatlarini maqsad qilib qo`yadi. Bunda psixofiziologik ma`lumotlarga mos boshqa kasbni yoki faoliyatni tanlab olinadigan sohasiga yaqin kasbni aniqlash maqsad qilib qo`yiladi.

O`quvchilarni kasbga yo`naltirishda uchraydigan 3ta konkret muammolarni ko`rib chiqamiz:

1.Kasb tanlayotgan o`quvchi ota-onasining erisha olmagan kasbini egallash uchun o`z qiziqishidan ko`ra ko`proq ota-onaning orzusidagi kasbni tanlashga majbur bo`lmoqda.

2. Kasb tanlashda moddiy manfaatning ustunligi.

3. Tanlayotgan kasbi haqidagi ma`lumotlar bazasining me`yordan oshib ketishi.

Yechimi:

1.Bizning mentalitetimizda oilada ota-onaga hurmat , kattalarning nazorati yuqori darajada. Albatta, ota-onalarning aytadigan fikri farzand uchun ahamiyatlidir. Ota-onalar esa bu vaziyatda o`z farzandlarini o`zi bilmagan holda xohlamagan kasbiga yo`naltirib qo`yishmoqda. Masalan, “Bolam , men shifokor bo`lolmadim, sen shifokor bo`lib , mening orzularimni ushaltirishing kerak” va boshqa hayotiy misollarni keltirishimiz mumkin. Agarda

ota-onaning xohishidagi kasb bilan farzandining qiziqishi, qobiliyati va layoqati to`g`ri kelsa, bu nur ustiga a`lo nur.Ham ota-onas xursand, ham jamiyatimizga o`z ishining yetuk mutaxassisini paydo bo`ladi. Aynan kasbga qiziqish va muhabbat tufayli, osmonda samolyot uchgan.Bu holat aksincha bo`lsa, bu chin ma`noda muammo.

2.Kasb tanlashda o`quvchilarni moddiy manfaatga qiziqitirishning salbiy jihatlari shuki, kelajakda kasb egallagan shaxs o`z kasbida chaqnab keta olmaydi .Aksincha, kasbini daromad manbaiga aylantirib oladi. ***“Bolam, shifokor bo`lsang ko`p pul topasan emas, shifokor bo`lsang kasallarni davolaysan, odamlar sendan xursand bo`ladi, quruvchi bo`lsang, chiroyli binolar qurasan”*** degan gaplarni ota-onas suhbat jarayonida ishlatsa, farzandining tafakkurida qoladi. Hozirgi jamiyatimizda oliy ma`lumotli haydovchilar, qassoblar va boshqa kasbdagilarni uchratishimiz mumkin. Ular oliygohda etika estetikani o`rgangan, albatta.Bu kabilarni o`zi qiziqmagan sohada tahsil olganlar qatoriga qo`shish mumkin.

3.Hamma narsada me`yor bo`lgani yaxshi. O`quvchi o`zi tanlayotgan kasbi haqida me`yordan ortiq ma`lumotga ega bo`lgan holatda ham unda shu kasbga nisbatan xohish va istak kamayadi. Amerikalik psixologlar 6 yoshli o`g`il bolada tajriba o`tkazadi. Yoshligidan harbiy kiyimlar kiydiradi, xonasini harbiylikka oid fotosuratlar bilan jihozlaydi. Umuman atmosferasi harbiycha qiladi. Bola voyaga yetib kasb tanlash yoshiga yetganda o`zining harbiy bo`lmasligini aytadi. Bu fikr psixologlarni ajablantiradi. Kattalar suhbat paytida kasb haqida o`ylamasdan salbiy gaplarni gapirmaslik kerak. Chunki baribir yosh bola bilan kattalarning ongi bir-biridan farq qiladi, katta odamning hayotiy tajribasi katta bo`ladi. O`ylashingiz mumkin, internet borku, o`ziga qiziq bilimni internetdan oladi, agar siz uni qiziqtirmsangiz u bu xatti-harakatni amalga oshirmaydi, chunki ular qiziquvchan bo`ladi.

O`quvchilarning kasbiy layoqatlari va ularning kasbga bo`lgan munosabatlarini rivojlantirish uchun kasb ko`nikmalarini shakllantirish asoslari, kasb tanlashga yo`llash sistemasining bosqichlari va kasb tanlashda asosiy mezonlarga e`tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonlarning nazariy jihatdan o`rganar ekanmiz , kasbiy bilimlarni egallahlarida o`quv jarayonining amaliyot bilan uyg`unligini ta`minlash kasb-hunar kolleji o`quvchilarini kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish bilan birga ularning kasbiy ko`nikmalarini ham rivojlantiradi. O`quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish , kasb tanlashning ijtimoiy qimmatli motivlarini tarkib toptirish , o`z professional mavqeini belgilashda ko`maklashish ularning kasbiy bilimlariga tayanishi uqtirishi zarur holatdir. Kasbga yo`llash ishlarining ijtimoiy ahamiyatini oshirish , mutaxassislarga qanday talablar qo`yilishini aniqlashtirish, kasbga yo`naltirish ishlarini o`tkazish zaruriyatidan kelib chiqib kasbiy bilim va ko`nikmalarining ijtimoiy-psixologik mazmunini va ahamiyatini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda , o`quvchilarning kasb faoliyati har xil turlariga qiziqish va maylni rivojlantirish kasbga yo`naltirishning muhim tarkibiy qismi ekanligini e`tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni mehnatga tayyorlash yangi masala emas, hozir bu masalani ta`lim-tarbiya nazariyasi bilan uzviy birlikda ko`rib chiqish lozim.Kasbga yo`naltirish muammosiga ko`ra tarkib topgan ilmiy yo`nalishlarni rivojlantirish - eng muhim vazifalardan biridir.